

1. Dickey, E. (2022). Learning Foreign Languages in Antiquity: How Did They Do It? Antigone. Retrieved from <https://antigonejournal.com>.
2. Hock, H. H., & Joseph, B. D. (1996). Language History, Language Change, and Language Relationship: An Introduction to Historical and Comparative Linguistics. Berlin: Mouton de Gruyter.
3. Tulyaganova, N. A. R. G. I. Z. A., & Yusupova, S. (2022). The interdependence of culture and language. *Студенческий вестник*, 13(205 часть 8), 17.
4. Warschauer, M. (1996). "Computer-assisted language learning: An analysis of technology's role in second language acquisition." *Language Learning & Technology*, 1(1), 3-8.
5. Klimova, B. (2017). "Evaluating the role of technology in the development of English language skills." *Procedia Computer Science*, 116, 364-368.
6. Garrett, N. (2009). "Computer-assisted language learning trends and issues revisited: Integrating innovation." *The Modern Language Journal*, 93(s1), 719-740.
7. Tulyaganova, N. (2024). Interactive games for enhanced English language teaching. *Builders Of The Future*, 4(04), 305-309.
8. Tulaganova, N. F. Q., & Yusupova, S. B. (2022). Madaniyat, san'at va adabiyotning tilga ta'siri: uzbek va ingliz tillarining óziga xos xususiyatlari. *Academic research in educational sciences*, 3(4), 794-797.
9. Batirovna, Y. S. (2023). Comparison of speech forms in Uzbek and English novels. *International journal of social science & interdisciplinary research* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036, 12, 65-66.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA CHET TILINI O'RGATISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METODLARNING TUTGAN O'RNI

*Abduraxmonova Feruza Ibodulla qizi
Zoyirova Sevinchxon Zokir qizi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabalari,
Ilmiy rahbar: Berdiyeva Sadoqat Eshonqul qizi*

Annotatsiya. Hozirgi dunyo globallashuvi jarayoni insonlardan o'z ona tilidan tashqari yana bir necha xorijiy tillarni o'rganishni taqozo qilmoqda. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun chet tili o'qitishning samarali, zamonaviy va innovatsion metodlari haqida to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: chet tillari, qiziqarli o'yinlar, lingvistik kapital, boshlang'ich sinflar, zamonaviy innovatsion metodlar.

Bugungi kunda dunyo aholisining qariyb 60 foizi ikki yoki undan ortiq tillarda so'zlasha olishi barchaga ma'lum. Jahonda globallashuv jarayonlarini tezlashtirish, erkin bozor munosabatlariga o'tish va ishlab chiqarishga yuqori texnologiyalarni joriy etishning rag'batlantirilishi «lingvistik kapital»ga, ya'ni chet tillarni (ayniqsa, ingliz tilini) mukammal egallagan mutaxassislarga ehtiyojni kuchaytirmoqda.

Tadqiqotlar hozirgi kunda ushbu jarayonni erta yoshda, asosan boshlang'ich sinf o'quvchilarida boshlash yaxshi samara berishini ko'rsatmoqda va amalda qo'llashmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishda eng asosiy vazifalardan biri o'quvchilarga ona tilini o'rgatish bilan bir qatorda xorijiy tillarni o'rgatish, shu nuqtayi nazardan ingliz tilini o'rgatishdir. O'quvchini ingliz tiliga qiziqitira olish, ingliz tilida nutqni rivojlantirish, nutqiy munosabatga muomalaga o'rgatishdir.

Hozirgi kunda yurtimizda ham ushbu masalaga jiddiy e'tibor qaratilib, xorijiy tillarni o'qitishda dunyoning yetakchi tashkilot va oliygohlari bilan hamkorlikda yangicha yondashuv asosida dasturlar ishlab chiqarilmoqda. Zamonaviy boshlang'ich ta'limdagi eng asosiy va ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan qarorlardan biri bu O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-1875-sonli Qaroridir. Ushbu qarorga muvofiq chet tillarini, asosan, ingliz tilini boshlang'ich sinfdan boshlab o'rgatish, ularni chet tillarini o'rgatishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish uchun barcha umumta'lim maktablarda 1-sinfdan boshlab ingliz tili darslarini turli xil qiziqarli o'yinlar tarzida o'qitish va shu bilan birga o'quvchilarning og'zaki nutqini ham rivojlantirish, 2-sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'qitishni zamonaviy, innovatsion usullar orqali o'tish bosqichma-bosqich boshlandi. So'nggi paytlarda ingliz tilini o'rganadigan har qanday yoshdagi odamlar soni juda ko'paymoqda. Buning sababi, hayot jarayonida ingliz tilini bilmasdan yashash qiyinlashib bormoqda. Ammo til o'rganish ham yosh davrlariga bog'liq. Hatto, olimlar bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtirishni isbotlashgan. Bolalarda til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda bolalar vaqtining ko'pligi va o'rgangan ma'lumotlarni tez xotirada saqlashi buning asosiy sabablaridandir. Yana shunga e'tibor qaratish kerakki, 6-7 yoshdagi bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning uchun ham ingliz tilini o'rganayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilariga tilni o'rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik zarur. Aks holda chet tilini o'rgatishning dastlabki qadamidanoq bolani charchatishi va til o'rganishga bo'lgan qiziqishini susaytirib qo'yishi mumkin.

Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun quyidagi innovatsion metodlardan foydalanish mumkin :

- Ko'rish orqali eslab qolish;
- Qo'shiq va she'rlar orqali tushunish;
- Multfilmlar orqali o'rgatish;
- Qiziqarli o'yinlar orqali o'rganish;
- Sezgi a'zolar orqali o'rganish.

Bolalar maktab ostonasiga ijobiy (jismonan chiniquqan, tirishqoq va shijoatli, kirishimli) va salbiy (tortinchoq, injiq, o'jar, qaysar, kamgap) individual xususiyatlari bilan qadam qo'yishadi. Shuningdek tashqi qo'zg'atuvchilarga nisbatan ta'sirlanishlari bilan ham bir-birlaridan ajralib turishadi. Masalan, ba'zi o'quvchilar musiqadan zavqlanishadi, ba'zilar ranglardan, ayrimlari esa hamon tasavvurlaridagi ertaklar olamida yashaydi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilari mashg'ulot davomida metodlarni qo'llashda bolalarning xarakteriga ham alohida e'tibor qaratishi lozim.

Bilamizki, bolalar qiziquvchan ular bir xillikdan tez zerikadi. Shuning uchun o'qituvchi doimo bir xil usullardan foydalangan holda dars o'tishi emas, balki bunday usullarni o'zgartirib, yangilab dars o'tishi lozim. Aks holda bolalar o'qituvchining qanday dars o'tishini fahmlab

olishadi va bunga tayyorgarlik ko'rishadi. Usullarni yangilab dars o'tish bolalarning intilishlarini oshiradi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'quv faoliyati davomidagi muvaffaqiyatlari bilan atrofdagilarda ijobiy taassurot qoldirishga moyil bo'lishadi. Bunday moyillik muvaffaqiyatga erishish ishtiyoqini kuchaytiradi. Muvaffaqiyat boshlang'ich sinf o'quvchilarining predmetga nisbatan qiziqish va uni o'rganishga motivatsiyasini oshirishda muhim omil sanaladi. Ma'lumki chet tildan bilim, malaka va ko'nikmalarni egallanganligini aniqlashning me'yorlarga va mezonlarga asoslanadigan yondashuvlari mavjud. Me'yoriy yondashuvda o'quvchi bilimi dasturiy talablar asosida yoki sinfning o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan baholanadi. Lekin boshlang'ich sinf o'quvchilari baholashda ularningning individual ko'rsatkichlarini inobatga oladigan, raqobatchilik kayfiyatidan xoli va motivatsiyasini oshiradigan bolaparvar baholash maqsadga muvofiq. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi baholarga nisbatan o'ta ta'sirchan bo'ladi va "sen buni yomon bajarding" mazmunidagi tanbehni "sen yomonsan" deya qabul qilishadi. Shuning uchun o'quvchilar bilimni baholashda dastlabki o'zlashtirish ko'rsatkichi bilan qayd etilgan natija orasidagi farq inobatga olinishi lozim. O'quvchining eng kichik yutug'i ham "Balli, sen bugun avvalgidan tezroq o'qiyapsan", "Sen chiroyli gapiryapsan, muvaffaqiyatingdan xursandman" tarzida e'tirof etilishi kerak. Bunday rag'bat o'quvchini ilhomlantiradi va o'quv predmetiga nisbatan qiziqishini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, kichik yoshdagi bolalarga til o'rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg'ulot tarzida olib borilishi, bir necha samarali usullardan foydalanib dars o'tish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli qarori.
2. Bekmuratova U. B. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat. Toshkent — 2012 yil
3. Turdaliyeva G.N "Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar"// 2020
4. Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora –tadbirlari to'g'risida (PQ-1875-son)lXalq so'zi gazetasi. 2012yil. 12-dekabr.

ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКИЕ СТРАТЕГИИ ФОРМИРОВАНИЯ ВТОРОГО ЯЗЫКА У ДОШКОЛЬНИКОВ

*Абдухамидова Озода Шухрат кизи,
Студентка Джизакского педагогического университета имени А.Кадыри
Научный консультант: Пак Диана Александровна*

Аннотация: В данной работе рассматриваются лингводидактические стратегии формирования второго языка у дошкольников. Особое внимание уделяется игровой методике как эффективному способу развития языковых навыков у детей младшего возраста. Анализируются ключевые аспекты внедрения данной методики, включая